


Qurilish ishlari


2018 yilning yanvar oyida Samarqand viloyatida 165,1 mlrd so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 100,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 3,2 mlrd so'mlik yoki 117,1 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,4 foiz punktga oshdi.




Jami qurilish ishlarining hajmidan kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarining 52,2 % ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljalangan uy-joylar ni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash yangi qurilishi, rekonstruksiya, ijtimoiy soha ob'yektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Mulkchilik shakllari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 162,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlarining hajmi 98,2 foizni tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 foiz punktga kamaydi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 86,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlarining hajmi 6,1 foizni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha qurilish ishlari



2018 yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi bino va inshootlar qurilishining ulushi 137,2 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 106,3 % tashkil qildi, davlat mulkchiligidagi ulushi esa, 1,7 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 77,3 % tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 15,6 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 marta ortiq, davlat mulkchiligidagi ulushi esa, 1,7 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 90,9 % tashkil etdi hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 9,4 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 140,3 % tashkil qildi, davlat mulkchiligidagi ulushi esa, 0,3 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 100 % tashkil etdi.